



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti




№3(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 422 sahifa,
16-mart, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woosyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Katta guruh tarbiyalanuvchilarida kasb haqidagi dastlabki tasavvurlarni shakllantirish metodikasini innovatsion ekotizim sharoitida takomillashtirish	18
Uralova Fotima Baxtiyor qizi	
Malakali sportchilarning kommunikativ qobiliyatlarini takomillashtirishda sotsiologik yondashuv (gandbolchilar misolida).....	23
G. A. Valiyeva	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida motor alaliyali bolalarni ruhiy va nutqiy rivojlantirish usullari	27
Suyunova Surayyo Ulash qizi	
Sog'lom bola ekotizimining asoslari: ovqatlanish, immunitet va rivojlanish	31
Israilova Xusnida Adilovna	
Mobil ilovalar yordamida mustaqil o'qishni rivojlantirish	37
Raximova Feruza Najmiddinovna	
Biologiya darslarida muammoli ta'lim texnologiyasini qo'llash orqali mantiqiy fikrlashni rivojlantirish	42
Dauekeeva Gulistan Orinbaevna	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari	46
Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna	
Velosiped haydashning afzalliklari.....	49
Raxmonova Go'zal Bobir qizi	
Компетентностный подход как стратегическая основа модернизации образования и его реализация в преподавании русского языка как иностранного в Узбекистане	54
Мирзакбарова Севда Бахиддиновна	
Umumta'lim maktablarida texnologiya fani mashg'ulotlarini tashkil etishning zamonaviy yondashuvlari va metodlari.....	58
Ziyamova Gulbaxor Tulabayevna	
Типы аббревиации в русском и узбекском языках: сравнительно-типологический анализ.....	62
Рахмонова Бахтигул Пайзилловна	
Maktabgacha ta'limda nutqni rivojlantirish jarayonida didaktik o'yinlardan foydalanish metodikasi	65
Abidjonova Mushtariybonu Qobiljon qizi	
Tarbiyaviy tadbirlarni samarali tashkil etishda maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalarning o'zaro hamkorlik masalalari.....	71
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna, Jabborova Shaxina G'affor qizi	
Qadriyatli yondashuv asosida talabalarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalash mexanizmlarini takomillashtirish ..	76
G'aybullayev Quvonchbek G'olibovich	
Maktab o'quvchilarida stressga barqarorlik namoyon bo'lishining psixologik tahlili	83
Ismoilova N. Z.	
Yoshlar ma'naviyatini shakllantirishda milliy qadriyatlarning o'rni.....	87
Karshiyev Jaxongir Abdirayimovich	
Funksional savodxonlikni rivojlantirishda o'qish savodxonligining o'rni va ahamiyati	91
Xatamova Munisa Mamadulla qizi	
Transformatsiyalash tizimi asosida o'quvchilarning loyihalash kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligi	95
Jurayeva Zulayxo Islomovna	
Zamonaviy boshqaruv nazariyalarida rahbar muloqoti (transformatsion, kommunikativ va ishtirokchi boshqaruv yondashuvlari asosida).....	102
Islamova Difuza Dilshodovna	



Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida pedagogik kompetentlikni tabaqalashgan yondashuv asosida rivojlantirish mazmuni	107
Begmatova Nasiba Mengnarovna	
Bo'lajak maxsus pedagoglarni inklyuziv ta'limda subyektlar faoliyatini o'rgatish metodikasi	112
Dilshodov Abrorjon Dilshodjon o'g'li	
Pre-Reading Activities to Enhance Foreign Language Reading Comprehension: Reading "The Adventures of Tom Sawyer" in 10–11 Grades	118
Djumaniyazova Zulfiya Kaliyevna	
Nutq aktlarini o'rgatishda autentik materiallardan foydalanishning metodik imkoniyatlari (filologik yo'nalish talabalari misolida)	122
Fayzulloeva Chevar G'ayrat qizi	
Yangi O'zbekistonda talaba-yoshlarni milliy yuksaltirishda jadid-marifatparvarlari ilgari surgan g'oyalarning o'rni va roli	125
Mamadaliyev Abduvoxid Maxsitaliyevich	
Gimnastikaning O'zbekistonga kirib kelish va rivojlanish tarixi	128
N. Q. Mamasidova	
Uglevodorodlar tarkibini aniqlashda massa ulushiga asoslangan reflektiv yondashuv (7-9-sinflar misolida)	131
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich, Smanova Zulayxo Asanaliyevna	
Screencasting materiallarini yaratish va ularni o'quv jarayonida qo'llash	134
Maxmudova Dilfuza Meliyevna, Ergashov Niyozxon Ilyozxon o'g'li	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda so'z shakllanishini psixolingvistik asoslari	137
Moxirabonu G'aniyeva Adxam qizi	
Maktabgacha ta'limdagi muammolar va yechimlar: o'zbekiston respublikasi tajribasi	140
N. Sh. Miryusupova	
Interaktiv kartografik resurslar va ularning ta'lim jarayonida qo'llanilishining didaktik, kognitiv hamda metodik asoslari	143
Olimova Aziza Abdullayevna	
Mentorlik tizimining tarixiy ildizlari va rivojlanish bosqichlari	147
Oxunova Dilnoza Qaxxorjonovna, Abdumannonova Durdonaxon Shuxratjon qizi	
Talabalarining psixologik holati va stress omillarining prokrastinatsiyaga ta'siri hamda mustaqil ta'lim faoliyatini qo'llab-quvvatlash usullari	150
Razakov Farxod Kuvondikovich, Rajabov Hikmat Toshevich	
Talabalarni stulda o'tirgan qiyofachi portreti ranglavhasini ishlashga o'rgatish metodikasi	154
Sadatov Chori Xolmuradovich	
Organik kimyo fanini o'qitishda teskari ta'lim va texnologiyalarning ahamiyati	158
Umrbekova Maftuna Ulug'bek qizi, Babanazarova Ayzada Omirbaevna, Abdulkakimova Gulziyba Ziyatdinovna	
Duduqlanishni bartaraf etishda kompleks metodlarini qo'llashning samaradorligi	162
Xasanova Barnoxon Abdusattor qizi	
Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini takomillashtirish	165
Xolbozorova Nasiba Xolbozar qizi	
Проектирование персонализированных образовательных сценариев в дошкольном образовании средствами генеративного искусственного интеллекта	168
Пак Диана Александровна	
Bo'lajak pedagoglarni tayyorlashda STEAM yondashuvining roli	170
Atenov Jandarbek Dayrabay o'g'li	
Innovatsion ta'lim muhitida talabalarining kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari	173
Bo'ltakov Sanjarbek Xazratqul o'g'li	
Alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolalar uchun inklyuziv ta'lim tizimining ahamiyati	176
Mehmonova Nodiraxon Yusufxon qizi	

Duduqlanish nutq kamchiligini korrektsiyalashning maxsus va integratsiyalashgan texnologiyalarini rivojlantirish.....	180
Boxodirova Gulasalxon Ibrohimovna	
Эссе как инструмент формирования и диагностики компетенций в системе высшего образования .	184
Шейхмамбетов Сервер Рефикович	
Matallar va folklor hikoyalari: maktabgacha ta'lim tashkilotlarida interaktiv dars texnologiyalari.....	188
Azimova Nodira Hikmatovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda jismoniy sifatlarni rivojlantirish va ularni sportga yo'naltirishning pedagogik asoslari.....	191
Norboyev Komiljon Jurakulovich, Rustamova Kamola Xayrulla qizi	
Oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'qitilishining ahamiyati.....	194
Burkhanova Sabo Tulanovna	
Oliy ta'lim muassasalarida O'zbekistonning eng yangi tarixini o'qitishning metodologik asoslari va muammolari	197
Norbutayeva Guzal Abdig'ofurovna	
Ta'lim tashkilotlarida sifadni boshqarish jarayonlarini tizimli rejalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	200
Abdurashit Karimovich Avliyakov	
Tarbiya darslari samaradorligini oshirishda abdulla avloniy pedagogik hikmatlaridan foydalanishni metodik tashkil etish.....	204
Daliyeva Eliza Zokir qizi	
Badiiy-tarixiy meros asosida bo'lajak pedagoglarning refleksiv tafakkuri va kasbiy identifikatsiyasini rivojlantirish	207
Qodirova Mavluda Maxodir qizi	
Adabiyot darslarida lirik asarlarni vizual yondashuvlar asosida o'qitish usullari.....	210
Sobitova Mahmudaxon Shuxratbek qizi	
ESG tamoyillarini ta'lim tizimiga joriy etish orqali talabalarda ekologik, ijtimoiy va boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish	216
Tursunova Shahzoda Baxromovna	
Социально-психологические факторы нарушения психологического здоровья в семье	219
Гулру Тургунова	
O'zini tarbiyalash (self-development) g'oyasining Ibn Sino ta'limotidagi o'rni	229
Usmanova E'zoza Zokirjonovna	
Оценка динамики физиологических показателей волейболистов 12–16 лет в предсоревновательный и соревновательный периоды.....	234
Умматалиева Шерзода Шерали угли	
Individual sport turlarida sportchilarning natijadorlik kompetensiyasini motivatsion omillar asosida shakllantirish.....	239
Baratov Nasriddin Karshibayevich	
O'smirlarda internetdan ortiqcha foydalanishning psixologik oqibatlarini	243
Fayziyeva Nodira Sobirovna	
Transakt analiz: shaxslararo muloqotni tahlil qilishning nazariy va amaliy asoslari	247
Nilufar Sayfidinovna Sangirova	
Inklyuziv ta'lim jarayonini boshqarish mexanizmlarini rivojlantirish (umumiy o'rta ta'lim maktablari misolida)	252
Abdug'aniyev Abdurauf Abdumannonovich	
O'zbek milliy kurashining tarixiy rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi pedagogik ahamiyati.....	257
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Almardanov Xasan Asqarovich	
Belbog'li kurashning shakllanishi va rivojlanish tarixi: jismoniy tarbiya tizimidagi o'rni va metodik imkoniyatlari	261
Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqizilov Muxammadbek Sherali o'gli	



Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	265
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Norqobilov Jamshid G'ulomovich</i>	
Dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi va uning ta'lim jarayonida kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanishi	270
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi, Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli</i>	
Raqamli muhitda shaxs xulq-atvori dinamikasi (bolalik va o'smirlar misolida)	275
<i>Raimdjanov Mirkarim Tolibjon o'g'li</i>	
O'quvchilarning intellektual qobiliyatlarini oshirishning pedagogik va psixologik asoslari	278
<i>Suvanova Baxtigul Baxridinovna</i>	
Xalqaro tajriba asosida o'quvchilarda tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish mexanizmlari	283
<i>Azimov I. T., Mirzayeva N. I.</i>	
Boshlang'ich sinflarda ingliz tili o'qitishda didaktik vositalardan foydalanish	288
<i>Ziyaboyeva Sevara Saydullayevna</i>	
Yuqori malakali o'rta masofaga yuguruvchilarning jismoniy rivojlanish dinamikasi	292
<i>Nazarov Nuriddin Baxranovich</i>	
Maktab direktorining partisipativ boshqaruv faoliyatida qarorlar qabul qilish jarayonida ishtirokchilarning roli	297
<i>Jabborova Yulduzxon Hasan qizi</i>	
Tibbiyotda nizoli vaziyatlar va ularni bartaraf etish usullari	301
<i>Olimova Dono Shakirovna, Baxtiyorova Shahnoza Mansurbekovna</i>	
Ichki kasalliklarni tashxislashda klinik fikrlashning o'rni	304
<i>Tilavova Muqaddas, Hasanova Munisa, Mamatqulova Fayzo, Hakimova Xonbuvi Hakimovna</i>	
Транснациональные компании и проблема суверенитета национального государства	307
<i>Ф. Равшанов, Л. Сохибова</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarda o'quv-biluv faoliyati motivatsiyasini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati	311
<i>Muhammadiyeva Manzura Maratovna, Musulmonova Sabrina Akmal qizi</i>	
Texnologik ta'limda xorijiy tajriba	316
<i>Lochinbek Abdirasulov</i>	
Talabalarda ilmiy-tadqiqot ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari	319
<i>Saffarova Mohidil Axmadovna, Mustafayeva Feruza Anvar qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ona tili darslaridagi asosiy resurslari: "ona tili" darsligi, mashq daftari, o'qituvchi kitobi ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida	324
<i>Soatova Hilola Shuhrat qizi</i>	
Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi – zamonaviy jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida	328
<i>R. D. Mustayev, H. F. Abduvositov</i>	
Русскоязычная литература Узбекистана современного периода: проблематика, поэтика и художественный анализ	332
<i>Чернова Татьяна Алексеевна</i>	
O'smirlar orasida tengdoshlar bosimi va uning psixologik ta'siri	335
<i>Toshpo'latova O'g'iloy Baxtiyor qizi</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning maktabgacha yoshdagi bolalarda iste'mol madaniyatini shakllantirish jarayonida targeting yondashuvining pedagogik nazariy asoslari	339
<i>D. G. Umnov</i>	
Ona tili darslarini ikkinchi til tamoyillari asosida tashkil etish masalalari	344
<i>Maxkamova Guluzroxon Abdumutalibovna</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida mustaqil ishlarni pedagogik jihatlardan tashkil etishning nazariy va amaliy aspektlari	347
<i>Mahkamov Mahammadjon Dadajonovich</i>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars jarayonini takomillashtirish metodikasi	351
<i>Muhammadjonova Durdonaxon Bahromjon qizi</i>	
Tarix darslarini modellashtirishda pedagogik metodlar tasnifi va ularning samaradorligi	354
<i>Ikrom Qodirov</i>	

Hadassah gospital maktabi modelining o'ziga xos xususiyatlari, pedagogik samaradorligi va uni O'zbekiston gospital maktablariga tatbiq etishning ahamiyati	357
<i>Abdullayev Aziz Habibullayevich, Ochilov Orazbek Qosim o'g'li, Alimova Dono Abbosxanovna</i>	
Davlat boshqaruvi tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash va prognozlash metodologiyasi.....	361
<i>Amirxo'jayev Shukurjon Qurbonovich, Sotvoldiyev Akbarjon Umidjon o'g'li</i>	
Neyropedagogik yondashuv asosida o'quvchilarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishning ilmiy-nazariy va amaliy asoslari	364
<i>Babakulova Dilnoza Ramazonovna</i>	
Boshlang'ich sinflarda nutqiy nuqsonlarning oldini olish va o'quvchilarning talaffuz madaniyatini shakllantirish metodikasi.....	367
<i>Baxtiyorova Nastarin Baxriddinovna, Daminova Dilbar Melimurodovna</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga qiziqishini oshirishda gamifikatsiya elementlaridan foydalanishning nazariy-metodik asoslari.....	370
<i>G'aniyeva Gulxayyo Islom qizi, Raxmatova Shaxlo Mansurovna</i>	
Ingliz tili darslarida kitobxonlik ko'nikmalarining o'ziga xosligi	373
<i>Jo'rabojeva Turg'unoy Ikromjon qizi</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida lingvokognitiv kompetentlikni rivojlantirishning didaktik tizimi.....	377
<i>Kozimova Sadoqat</i>	
Umumta'lim maktablarida tabiiy fanlar (science)ni o'qitish orqali ekologik savodxonlikni shakllantirishning pedagogik asoslari	380
<i>Majitov Turg'unali Anvar o'g'li</i>	
Oilaviy munosabatlarda manipulyativ muloqot indikatsiyasi: psixologik tahlil va eksperimental natijalar.....	383
<i>Nishanova Zulfizar Yashin qizi</i>	
Bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining o'rni.....	386
<i>Nurulloev Firuz No'monjonovich</i>	
Talabalarining kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning tarixiy-pedagogik asoslari (ma'rifatparvar mutafakkirlar merosi misolida).....	390
<i>Sabirov Kaxramon Bektursun o'g'li</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi 5-6 yoshli bolalarda muammoli vaziyatlarni mustaqil yechish qobiliyatini shakllantirish metodikasini takomillashtirish.....	393
<i>Tillayeva Vasila O'ktam qizi</i>	
Kritik fikrlash kompetensiyasining pedagogik va didaktik mazmuni	398
<i>Tursunaliyev Shaxzod Sherali o'g'li</i>	
Kurashchi qizlarning texnik harakatlarini kinematik va kinetik modellashtirish	402
<i>Xomudjonova Feruza Komiljon qizi</i>	
Oliy ta'limda ishga doir muloqot asoslari fanini o'qitish orqali talabalarining og'zaki fikrlash va nutq faoliyatini rivojlantirish	406
<i>Yuldasheva Dilnoza Bekturodovna</i>	
Роль онлайн-платформ и образовательных сервисов в формировании ответственности студентов.....	409
<i>Гуламов Жасур Баходирович</i>	
Изучение изменений полярного переключения негативных и позитивных эмоций средового воздействия в процессе развития/реабилитации механизмов эмпатии	413
<i>Ягудин Дмитрий Рустамович</i>	

DZYUDO KURASHINING TARIXIY EVOLYUTSIYASI VA UNING TA'LIM JARAYONIDA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA QO'LLANISHI

Xomudjonova Feruza Komiljon qizi

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat kafedrasini mudiri (PhD) dotsent

Nurullayev Fazliddin Murodulla o'gli

Jismoniy madaniyat yo'nalishi 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada dzyudo kurashining shakllanishidan tortib zamonaviy sport va ta'lim tizimidagi o'rnigacha bo'lgan rivojlanish bosqichlari tizimli tahlil qilingan. Unda Jigoro Kano tomonidan ishlab chiqilgan g'oyaviy-nazariy asoslar, dzyudoning xalqaro sport turi sifatida shakllanish jarayoni hamda uning pedagogik imkoniyatlari yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuv nuqtai nazaridan dzyudoning o'quvchilarda harakat, ijtimoiy, kommunikativ va xavfsizlik kompetensiyalarini shakllantirishdagi o'rni asoslab berilgan. Tadqiqotda tarixiy-qiyyosiy, tahliliy-sintetik hamda pedagogik model-lashtirish usullaridan foydalanildi. Natijada dzyudo mashg'ulotlarini ta'lim jarayoniga samarali integratsiya qilish uchun bosqichli metodik model ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: dzyudo, Jigoro Kano, tarixiy evolyutsiya, kompetensiyaviy yondashuv, jismoniy tarbiya, harakat kompetensiyasi, ijtimoiy kompetensiya, kommunikativ kompetensiya, xavfsizlik madaniyati.

Abstract: This article provides a systematic analysis of the historical development of judo from its formation to its role in modern sport and educational systems. It highlights the conceptual and theoretical foundations developed by Jigoro Kano, the process of its internationalization, and its pedagogical potential. From a competency-based perspective, the study substantiates the role of judo in developing students' motor, social, communicative, and safety competencies. The research applies historical-comparative, analytical-synthetic, and pedagogical modeling methods. As a result, a staged methodological model for integrating judo training into the educational process is proposed.

Key words: judo, Jigoro Kano, historical evolution, competency-based approach, physical education, motor competence, social competence, communicative competence, safety culture.

Аннотация: В данной статье системно проанализированы этапы исторической эволюции дзюдо от периода становления до его современного применения в спортивной и образовательной сферах. Рассмотрены концептуальные основы, разработанные Jigoro Kano, процесс интернационализации дзюдо, а также его педагогический потенциал. С позиций компетентностного подхода обоснована роль дзюдо в формировании у обучающихся двигательных, социальных, коммуникативных и безопасностных компетенций. В исследовании использованы методы историко-сравнительного анализа, аналитико-синтетического обобщения и педагогического моделирования. В результате предложена поэтапная методическая модель интеграции дзюдо в образовательный процесс.

Ключевые слова: дзюдо, Дзигоро Кано, историческая эволюция, компетентностный подход, физическое воспитание, двигательная компетенция, социальная компетенция, коммуникативная компетенция, культура безопасности.

KIRISH

Dzyudo bugungi kunda jahon miqyosida eng ko'p tarqalgan yakkakurash turlaridan biri sanaladi. Uning ommalashuvi tasodifiy emas. Mazkur tizim sport texnikalari, jismoniy tayyorgarlik, axloqiy tarbiya va intellektual o'sishni bir butun holda uyg'unlashtira olgani bilan ajralib turadi. Dzyudo XIX asr oxirida yapon pedagogi va mutafakkiri Jigoro Kano tomonidan yaratildi. Kano jujutsu maktablaridagi samarali usullarni tanlab, ularni xavfsizroq, maqsadliroq va tarbiyaviy mazmun bilan boyitilgan tizimga aylantirdi ^[1]. Shu sababli dzyudo tarixini o'rganish sport tarixini o'rganish bilangina cheklanmaydi, balki ta'lim falsafasi, qadriyatlar pedagogikasi va kompetensiyalarni rivojlantirish mexanizmlarini tahlil qilishni ham talab etadi.



Zamonaviy ta'lim tizimi natijaga yo'naltirilgan yondashuvni oldinga chiqardi. Endilikda o'quvchi yoki talabning ma'lum ma'lumotlarni yod olishi emas, balki real vaziyatda harakat qilishi, muammo yechishi, jamoa bilan ishlashi, xavfni baholashi va o'z faoliyatini boshqara olishi muhim ko'rsatkich sifatida qaralmoqda. Kompetensiyaviy yondashuv aynan mana shu talablarga javob beradi. Dzyudo mashg'ulotlari esa tabiatan ana shunday natijalarni yuzaga chiqaruvchi faoliyat turi hisoblanadi. U intizom, hurmat, qaror qabul qilish, tezkor moslashish, tanani boshqarish va sherik bilan hamkorlik qilishni talab etadi ^[4]. Demak, dzyudoni ta'lim jarayoniga to'g'ri integratsiya qilish nazariy ham, amaliy ham jihatdan dolzarb masaladir.

Tadqiqot obyekti sifatida dzyudo kurashining tarixiy rivojlanish jarayoni va uning ta'lim amaliyotidagi imkoniyatlari olindi. Predmetni dzyudoning kompetensiyaviy yondashuv asosida qo'llanish shakllari tashkil etdi. Maqolaning maqsadi dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasini tahlil qilish hamda uning ta'lim jarayonida kompetensiyalarni rivojlantiruvchi vosita sifatidagi metodik imkoniyatlarini asoslab berishdan iborat. Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: dzyudoning shakllanish va rivojlanish bosqichlarini yoritish, uning pedagogik g'oyalari va tamoyillarini aniqlash, kompetensiyaviy yondashuv bilan tutash nuqtalarini ko'rsatish hamda amaliy qo'llash bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Dzyudo tarixiga oid manbalarda Jigoro Kano faoliyati markaziy o'rin egallaydi. Kodokan instituti materiallarida Kano jujutsu an'analari ko'r-korona takrorlamasdan, ulardagi ratsional jihatlarni ilmiy va pedagogik asosda qayta ishlagani qayd etiladi ^[1]. Uning "seiryoku zenyo" va "jita kyoei" tamoyillari dzyudoning texnik qoidalari bilangina emas, balki inson va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qiluvchi axloqiy mezonlar bilan ham bog'langan. Stevens dzyudoning shakllanish tarixini tahlil qilar ekan, Kano tomonidan yaratilgan tizimning asosiy ustuni musobaqa emas, tarbiya va o'zini takomillashtirish ekanini alohida ko'rsatadi ^[2]. Daigo esa texnik tasnif va usullar evolyutsiyasini yoritib, dzyudoning vaqt o'tishi bilan murakkab, ammo tartibli o'quv tizimiga aylanganini ko'rsatadi ^[3].

Zamonaviy ilmiy ishlarda dzyudoning faqat musobaqaviy sport emas, balki ko'p komponentli rivojlantiruvchi faoliyat ekani tobora ko'proq ta'kidlanmoqda. Garbeloto va hammualliflar ishlab chiqqan konseptual modelda dzyudo sog'lomlashtiruvchi, motor, texnik-taktik va falsafiy-tarbiyaviy yo'nalishlarning birligida talqin qilinadi ^[5]. Ular dzyudo murabbiylari bilan o'tkazilgan ekspert baholashlari asosida dzyudo mashg'ulotlari turli yosh davrlarida bir xil maqsadni emas, balki bosqichma-bosqich shakllanuvchi kompetensiyalar tizimini ko'zlashi lozimligini asoslaydi. Shu jihat dzyudoni kompetensiyaviy ta'lim modeli bilan yaqinlashtiradi.

Maxsus ehtiyojli bolalar, ijtimoiy moslashuv va xavfsiz faoliyat masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar ham dzyudoning ta'limiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Pierantozzi va hammualliflar moslashtirilgan dzyudo dasturi autizm spektridagi bolalarda kardiorespirator ko'rsatkichlar va jismoniy holatni yaxshilashini ko'rsatgan ^[6]. Descamps va hammualliflar sistematik sharhida esa dzyudo amaliyoti jismoniy natijalar bilan birga ijtimoiy aloqa, hissiy barqarorlik va kognitiv rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi ^[7]. UNESCOning yoshlar rivojida jang san'atlari bo'yicha tavsiyalarida dzyudoga o'xshash faoliyat turlari qadriyatlar tarbiyasi, intizom va ijtimoiy hamkorlikni shakllantirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan ^[8]. Demak, mavjud adabiyotlar dzyudoning tarixiy-pedagogik salohiyatini tasdiqlaydi, biroq uni o'quv jarayonidagi aniq kompetensiyalar bilan bog'lash masalasi hali ham chuqur metodik ishlashni talab qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada tarixiy-qiyosiy, manbashunoslik, tahliliy-sintetik va pedagogik modellashirish usullari qo'llanildi. Tarixiy-qiyosiy usul yordamida dzyudoning jujutsu an'analari bilan farqlanishi, Kodokan tizimining paydo bo'lishi, xalqaro federatsiyalar shakllanishi va olimpiya sporti sifatida tan olinishi ketma-ketlikda tahlil qilindi. Manbashunoslik yondashuvi orqali Kodokan instituti, IJF Academy, UNESCO materiallari hamda ilmiy maqolalar o'rganildi. Ushbu manbalar dzyudoning tarixi, qadriyatlar va ta'limiy amaliyoti orasidagi mantiqiy bog'liqlikni ochishga xizmat qildi ^[1; 4; 8].

Tahliliy-sintetik usul dzyudoga doir ilmiy qarashlarni ikki blokda umumlashtirish imkonini berdi. Birinchi blok tarixiy rivojlanishning mazmunini ochib berdi: an'anaviy jang san'atidan pedagogik sportga o'tish, milliy amaliyotdan xalqaro tizimga aylanish, musobaqaviy element bilan tarbiyaviy vazifaning parallel rivojlanishi. Ikkinchi blok zamonaviy ta'lim nuqtai nazaridan dzyudoning kompetensiyalarni shakllantirish resurslarini ajratib ko'rsatdi. Bunda harakat kompetensiyasi, kommunikativ kompetensiya, o'zini boshqarish kompetensiyasi, xavfsizlik kompetensiyasi va ijtimoiy hamkorlik kompetensiyasi mezon sifatida olindi.

Pedagogik modellashirish usuli asosida dzyudoni ta'lim jarayonida qo'llashning bosqichli modeli tuzildi. Model uch pog'onani qamrab oldi: tanishtiruvchi bosqich, amaliy-operatsion bosqich va reflektiv-baholash bosqichi. Har bir bosqich uchun maqsad, mazmun, metod, kutilayotgan natija va baholash mezonlari belgi-



landi. Bunday yondashuv dzyudo elementlarini oddiy jismoniy mashq darajasida emas, balki o'qitish natijalari bilan bog'langan pedagogik texnologiya darajasida talqin qilish imkonini berdi. Tadqiqotda faktlarni sun'iy ravishda statistik ko'rsatkichlarga aylantirish yo'liga borilmadi. Chunki maqolaning vazifasi mavjud tarixiy va ilmiy manbalar asosida nazariy-metodik model ishlab chiqishdan iborat bo'ldi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Dzyudo tarixiy evolyutsiyasini bir nechta yirik bosqichlarga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich 1882-yilda Kodokan maktabining tashkil etilishi bilan bog'liq. Ana shu davrda Kano jujutsu usullarini pedagogik saralash orqali xavfsiz va tizimli mashg'ulot modelini yaratdi ^[1].

Ikkinchi bosqich XIX asr oxiri va XX asr boshlarida dzyudoning ta'lim muassasalari va politiya tayyorgarligiga kirib borishi bilan tavsiflanadi. Bu o'rinda dzyudo shunchaki jang usuli emas, tartib-intizom, fe'l-atvor va iroda tarbiyasi vositasi sifatida qo'llanila boshladi ^[2].

Uchinchi bosqich Ikkinchi jahon urushidan keyingi davr bo'lib, bu paytda dzyudo xalqaro federatsiyalar, qoidalar va musobaqa formatlari asosida universallashtirildi.

To'rtinchi bosqich 1964-yil Tokio Olimpiadasidan keyin boshlangan global sportlashuv davridir.

Beshinchi bosqich esa hozirgi zamon bosqichi bo'lib, unda dzyudo maktab, universitet, reabilitatsiya, inkluziv sport va hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlarida qo'llanmoqda ^[4; 5].

Tarixiy jarayonning eng muhim natijasi shundaki, dzyudo o'zining dastlabki falsafiy negizini saqlagan holda yangi sharoitlarga moslasha oldi. Ko'pgina sport turlarida raqobat birlamchi o'ringa chiqib ketadi. Dzyudoda esa musobaqa mavjud bo'lsa-da, hurmat, nazorat, mas'uliyat va sherikka ehtiyotkor munosabat asosiy me'yor sifatida qoladi. Masalan, ukemi elementlari faqat yiqilish texnikasi emas, balki xavfsiz harakatlanish va xavfni boshqarish madaniyatidir. Randori esa faqat raqibni yengish usuli emas, balki vaziyatni tez anglash, qaror qabul qilish va o'zini boshqarish mashqidir. Shu ma'noda dzyudo kompetensiyaga yo'naltirilgan ta'lim bilan tabiiy ravishda uyg'unlashadi.

Quyidagi jadval dzyudoning tarixiy evolyutsiyasini pedagogik mazmun bilan bog'liq holda umumlashtiradi.

1-jadval: **Dzyudo tarixiy evolyutsiyasining asosiy bosqichlari**

Bosqich	Vaqt	Mazmun	Pedagogik ahamiyati
Shakllanish davri	1882–1900	Kodokan tashkil topdi, jujutsu usullari pedagogik qayta ishlanib tizimlashtirildi.	Xavfsizlik, tartib va metodik ketma-ketlik tamoyillari shakllandi.
Institutsional kengayish	1900–1945	Dzyudo maktab va tayyorgarlik tizimlariga kirib bordi.	Intizom, iroda va jamoaviylik bilan bog'landi.
Xalqaro sportlashuv	1945–1964	Xalqaro qoidalar va federativ tizimlar paydo bo'ldi.	Standartlashtirilgan o'qitish va baholash shakllandi.
Olimpiya davri	1964–2000	Musobaqaviy tizim jadal rivojlandi.	Natijadorlik bilan birga texnik murakkablik oshdi.
Kompetensiyaviy integratsiya	2000-yildan hozirgacha	Maktab, inkluziv ta'lim va sog'lomlashtirish dasturlariga moslashtirildi.	Harakat, ijtimoiy va refleksiv kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyati kengaydi.

Dzyudoning ta'lim jarayonidagi salohiyati ayniqsa kompetensiyaviy yondashuv bilan izohlanganda aniqroq ko'rinadi. Jismoniy tarbiya mashg'ulotida o'quvchi faqat usulni takrorlamasligi kerak. U mashqning maqsadini anglashi, harakatni nazorat qilishi, juftlikda ishlashi, etik me'yorlarga amal qilishi va o'z imkoniyatini baholashi lozim. Dzyudo ana shu talablarni yagona faoliyat ichida birlashtiradi. Masalan, salomlashish marosimi kommunikativ va ijtimoiy kompetensiyani mustahkamlaydi. Juftlik bilan mashq bajarish o'zaro ishonch, mas'uliyat va hamkorlikni kuchaytiradi. Texnik kombinatsiyalarni o'rganish tahlil qilish, tanani idrok etish va vaziyatga moslashish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Yiqilishdan himoyalash esa xavfsizlik kompetensiyasining amaliy ko'rinishidir ^[4; 8].



Quyidagi jadval dzyudo elementlarining kompetensiyalar bilan tutash nuqtalarini ko'rsatadi.

2-jadval: Dzyudo mashg'ulotlarining kompetensiyaviy natijalari

Dzyudo elementi	Rivojlanuvchi ko'nikma	Asosiy kompetensiya
Ukemi mashqlari	Xavfsiz yiqilish, tanani boshqarish, xavfni oldindan his qilish	Xavfsizlik kompetensiyasi, harakat kompetensiyasi
Rei va dojo etiketi	Hurmat, tinglash, qoidalarga rioya qilish	Ijtimoiy va kommunikativ kompetensiya
Randori	Tezkor qaror qabul qilish, o'zini tuta bilish, vaziyatga moslashish	Refleksiv va regulativ kompetensiya
Kata elementlari	Aniqlik, ketma-ketlik, texnik tafakkur	Kognitiv va amaliy kompetensiya
Juftlikda mashq	Sheriklik, yordam, mas'uliyat	Hamkorlik kompetensiyasi
Refleksiya va o'z-o'zini baholash	Xatoni ko'rish, rivojlanish rejasini tuzish	O'zini rivojlantirish kompetensiyasi

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, dzyudoni ta'lim muhitiga ko'chirishda uchta metodik shartga amal qilish zarur:

Birinchi shart, yosh va tayyorgarlik darajasiga moslikdir. Boshlang'ich bosqichda ukemi, o'yinli koordinatsiya mashqlari va etik qoidalar ustun bo'lishi kerak.

Ikkinchi shart, xavfsizlikni ustuvor qo'yishdir. Pedagog har bir mashqni xavfsiz bajarish algoritmini avval namoyish etishi va nazorat qilishi zarur.

Uchinchi shart, musobaqaviy natijani emas, kompetensiyaviy o'sishni asosiy mezon qilishdir.

O'quvchi texnik elementni to'g'ri bajara olishi, sherigi bilan madaniyatli ishlashi, o'z xatosini tushuntira olishi ham muhim natija sanaladi. Shu asosda dzyudoni maktab yoki oliy ta'limning jismoniy tarbiya mashg'ulotlariga modul sifatida kiritish mumkin.

Natija sifatida dzyudoni qo'llashning bosqichli modeli ishlab chiqildi. Tanishtiruvchi bosqichda dzyudoning qadriyatlar, xavfsizlik qoidalari va elementar harakatlari beriladi. Amaliy-operatsion bosqichda juftlik mashqlari, ukemi, oddiy usullar va situatsion topshiriqlar qo'llanadi. Refleksiv-baholash bosqichida o'quvchi o'z faoliyatini tahlil qiladi, sherik bahosini tinglaydi va kelgusi maqsadni belgilaydi. Bunday ketma-ketlik dzyudoni ko'r-korona sport texnikasi sifatida emas, kompetensiyalarni shakllantiruvchi ta'lim vositasi sifatida ishlatishga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'tkazilgan tahlil dzyudo kurashining tarixiy evolyutsiyasi uzluksiz pedagogik mazmunga ega bo'lgan jarayon ekanini ko'rsatdi. Jigoro Kano tomonidan asos solingan tizim avval jujutsu an'analarini qayta ishlash orqali xavfsiz va maqsadli mashg'ulot modeli sifatida shakllandi, keyinchalik xalqaro sportga aylandi, hozirgi davrda esa yana ta'lim, tarbiya va ijtimoiy rivojlanish ehtiyojlari bilan yangi mazmun kasb etmoqda. Demak, dzyudoning kuchi faqat uning texnik arsenalida emas, balki qadriyatlar, o'zini boshqarish va sherik bilan munosabatni uyg'unlashtira oladigan pedagogik tabiatidadir.

Kompetensiyaviy yondashuv dzyudoning mazmuniga tashqaridan yopishtirilgan nazariya emas. Aksincha, dzyudoning ichki mantiqi shu yondashuvga juda yaqin. Harakatni aniq bajarish, xavfsiz yiqilish, qoidaga bo'ysunish, sherik bilan ishlash, o'z xatosini tushunish va qayta urinib ko'rish kabi jarayonlarning barchasi ta'lim natijasi sifatida baholanishi mumkin. Shu sababli dzyudo elementlarini jismoniy tarbiya, sport to'garaklari, tarbiyaviy mashg'ulotlar va sog'lom turmush tarziga oid modullarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.

Amaliy tavsiya sifatida quyidagilar taklif etiladi:

- *birinchidan*, dzyudo asoslari bo'yicha qisqa o'quv modullarini jismoniy tarbiya dasturlariga moslashtirish;
- *ikkinchidan*, mashg'ulotlarni ukemi va etik me'yorlardan boshlash;
- *uchinchidan*, baholash mezonlariga texnik natija bilan birga xavfsizlik, hamkorlik va refleksiya ko'rsatkichlarini kiritish;
- *to'rtinchidan*, inkluziv va moslashtirilgan dasturlar ishlab chiqish;
- *beshinchidan*, pedagog va murabbiylar uchun dzyudoning tarbiyaviy imkoniyatlariga doir metodik seminarlar tashkil etish.

Ana shunda dzyudo ta'lim jarayonida sog'lom, mas'uliyatli, muloqotga kirisha oladigan va o'z faoliyatini boshqara biladigan shaxsni tarbiyalashga samarali xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Kano J. Kodokan Judo. Tokyo: Kodansha International, 1986.
2. Stevens J. The Way of Judo: A Portrait of Jigoro Kano and His Students. Boston: Shambhala, 2013.
3. Daigo T. Kodokan Judo Throwing Techniques. Tokyo: Kodansha International, 2005.
4. International Judo Federation Academy. Judo in School. Malta: IJF Academy, 2024.
5. Garbeloto F., da Costa B.G.G., de Oliveira E.H. et al. A New Developmental Approach for Judo Focusing on Health, Physical, Motor, and Educational Attributes. International Journal of Environmental Research and Public Health, 2023, 20(3), 2260.
6. Pierantozzi E., Morales J., Fukuda D.H. et al. Effects of a Long-Term Adapted Judo Program on the Health-Related Physical Fitness of Children with ASD. International Journal of Environmental Research and Public Health, 2022, 19(24), 16731.
7. Descamps G., Campos M.J., Rizzo T. et al. Benefits of Judo Practice for Individuals with Neurodevelopmental Disorders: A Systematic Literature Review. Sports, 2024, 12(7), 182.
8. UNESCO. Youth Development through Martial Arts: Selected Good Practices. Paris: UNESCO, 2019.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №3(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.